

**PROTEZDAN KEYINGI SHILLIQ QAVAT O'ZGARISHLARINI
DAVOLASHDA QIZILMIYA EKSTRAKTIDAN FOYDALANISHNING
KLINIK JIHALARI**

Rasulova Mohigul Matyoqub qizi

*Buxoro davlat tibbiyot instituti, Anatomiya, klinik anatomiya (OXTA) kafedراسي
assistenti*

muhammadjonmirfayz@gmail.com

+998914471797

Annotatsiya: Zamonaviy stomatologiya rivojlanishiga qaramay, olinadigan tish protezlariga muhtoj bemorlarni samarali protezlash dolzarb masala bo'lib qolmoqda. Protezlar muhim funksional va estetik ahamiyatga ega bo'lsa-da, ular shilliq qavatga doimiy ta'sir ko'rsatib, yallig'lanish va patologik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Shu sababli, protez bilan bog'liq shilliq qavat kasalliklarini davolashni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: protez stomatiti, regeneratsiya, Qizilmiya ekstrakti, epitelizatsiya tezligi.

Kirish: Og'iz bo'shlig'i shilliq qavati jismoniy, termal va kimyoviy ta'sirlarga chidamli hamda yuqori regeneratsiya xususiyatiga ega. Biroq, uning himoya funksiyalariga qaramay, turli kasalliklar keng tarqalgan va ularni davolash stomatologiyaning dolzarb muammolaridan biridir. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, o'rta yoshdan oshgan aholining 90% dan ortig'ida og'iz shilliq qavati va parodont kasalliklari uchraydi.

Asosiy qism: Tadqiqot Buxoro davlat tibbiyot institutida o'tkazilib, 2024–2025-yillarda olinadigan protezga muhtoj 149 nafar bemor tekshirildi. Bemorlar uch guruhga (nazorat, an'anaviy va zamonaviy davolash) ajratilib, protezlashdan oldin va keyin (1 hafta, 1 oy, 3 oy) baholandi. Klinik tekshiruvda giperemiya, epitelizatsiya, noqulaylik va protez stomatiti aniqlanib, qo'shimcha ravishda so'lak pH darajasi va laborator ko'rsatkichlar o'rganildi.

Protez stomatiti mexanik ta'sir va mikroflora buzilishi bilan bog'liq yallig'lanish bo'lib, tadqiqotda qizilmiya ekstrakti samarali natija ko'rsatdi. Davolash natijasida yallig'lanish kamayib, epitelizatsiya tezlashdi va 1 oy ichida shilliq qavat tiklanishi kuzatildi, pH ko'rsatkichlari me'yorga yaqinlashdi.

An'anaviy usul bilan solishtirganda, zamonaviy davolash tezroq tiklanish, kamroq noqulaylik va protezga yaxshiroq moslashuvni ta'minladi. Bu esa o'simlik ekstraktlarining protez stomatitini davolashda samarali ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa: Natijalar protezlash jarayonida shilliq qavat holati yaxshilanishini ko'rsatdi: giperemiya, shish va og'riq kamayib, protezga moslashuv oshdi. To'g'ri protez tayyorlash va gigiyena muhim ahamiyatga ega. Qizilmiya ekstrakti qo'llanganda bemorlarning 78% ida og'riq 0–3 gacha kamaydi, 14 kunda yallig'lanish pasaydi va 85% da to'liq tiklanish kuzatildi. *Streptococcus mutans* va *Candida albicans* 2,5–3 baravar kamaydi, 90% bemorlarda moslashuv yaxshilandi. Natijalar Qizilmiya ekstraktining protez stomatitida samaradorligini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Асланян М.А. Профилактика негативного воздействия съёмных зубных протезов, проявляющегося в виде аллергических реакций на слизистой оболочке протезного ложа // Бюллетень медицинских интернет-конференций. 2015. Т. 5, № 10. С. 1183.
2. Багатаева П.Р. Стоматологический статус и потребность в лечении у лиц пожилого и старческого возраста, проживающих в различных климатогеографических зонах : специальность 14.01.14 «Стоматология» : диссертация на соискание ученой степени кандидата медицинских наук / Москва, 2020. - 137 с.
3. Балкаров А.О., Карданова С.Ю., Хулаев И.В., Шхагапсоева К.А., Гендугова О.М. Состояние слизистой оболочки полости рта у лиц, пользующихся съёмными протезами/Современные проблемы

- науки и образования. – 2018. – №5. С. 1-8/<https://doi.org/10.17513/spno.28116>
4. Борисова Э.Г., Комова А.А., Никитина Е.А. Особенности клинического течения хронического рецидивирующего стоматита на фоне гальваноза // Журнал научных статей «Здоровье и образование в XXI веке». 2018. №5. С. 46-49.
 5. Борисова Э.Г. Проблемы оказания ортопедической стоматологической помощи пациентам с хроническим рецидивирующим афтозным стоматитом / Борисова Э.Г., Ягмуров Х.О., Спесивец А.Ф. // Медико-фармацевтический журнал Пульс. 2022. Т. 24. № 4. С.75-79.
 6. Борисова Э.Г., Машкова Н.Г., Спесивец А.Ф., Ягмуров Х.О. Результаты клинической оценки состояния съемных зубных протезов из термопластов // Проблемы стоматологии. 2022.Т. 18, №3.С.139-143.
 7. Бородовицина С.И. [и др.]; Основные заболевания слизистой оболочки рта: атлас / ФГБОУ ВО РязГМУ Минздрава России. – Рязань: ОТСиОП, 2019. – 316 с.
 8. Ботова Д. И. Эффективность комплекса мероприятий по профилактике и лечению стоматологических заболеваний у лиц молодого возраста, находящихся на ортодонтическом лечении. Пермь – 2018.-С.193